

Moliya-Iqtisodiyot boshqarmasi boshlig'i

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi Markaziy apparati jamoaga taklif etadi!

Mamlakatimizning muhim davlat tashkilotlaridan biri rivojlanishida faol ishtirok etishga, moliyaviy-iqtisodiy jarayonlarni samarali boshqarishga hamda rejalashtirish va tahlilning zamonaviy yondashuvlarini joriy etishga tayyor bo'lgan kuchli rahbarni izlayapmiz.

Bo'sh ish o'rni: Moliya-iqtisodiyot boshqarmasi boshlig'i

Asosiy vazifalar:

Strategik moliyaviy boshqaruv va byudjetlashtirish

- Qo'mita byudjeti loyihasini o'rta muddatli va yillik byudjet rejalashtirish doirasida shakllantirish jarayonini tashkil etish va boshqarish;
- Byudjet so'rovlari, hisob-kitoblar hamda moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning asoslanganligini shaxsan ta'minlash;
- Davlat siyosati ustuvor yo'nalishlari va tashkilot vazifalarini hisobga olgan holda byudjet mablag'larini taqsimlash va qayta taqsimlash bo'yicha qarorlar tayyorlash.

Moliyaviy hisob, hisobot va ichki nazorat

- Moliyaviy, byudjet va tahliliy hisobotlarning ishonchliligi, o'z vaqtida taqdim etilishi hamda sifati uchun to'liq javobgarlik;
- Byudjet hisobining to'g'ri yuritilishi va operatsiyalarning UZASBO tizimida aks ettirilishini nazorat qilish;
- Ichki moliyaviy nazoratni tashkil etish va moliyaviy risklarni boshqarish.

Byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishni nazorat qilish

- Byudjet ijrosi va moliyaviy intizomga rioya etilishini tizimli nazorat qilish;
- Samarasiz va asossiz xarajatlarning oldini olish bo'yicha choralar ko'rish;
- Aniqlangan kamchilik va qonunbuzilishlar yuzasidan materiallar tayyorlash hamda tuzatish choralari amalga oshirilishi uchun shaxsan javob berish.

Davlat xaridlari

- Davlat xaridlarini moliyaviy jihatdan barcha bosqichlarda kuzatib borishga rahbarlik qilish;
- Shartnomalar, tanlov va tender hujjatlarining majburiy moliyaviy-iqtisodiy ekspertizasini o'tkazish;
- Byudjet limitlari mavjudligi va moliyaviy majburiyatlarning qonuniyligini nazorat qilish.

Iqtisodiy tahlil va boshqaruv hisobotlari

- Tashkilot faoliyatining chuqur moliyaviy-iqtisodiy tahlilini amalga oshirish;
- Rahbariyat uchun prognozlar, tahliliy hisobotlar va takliflar tayyorlash;
- Byudjet resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Xodimlarni boshqarish va hamkorlik

- Bo'lim faoliyatiga rahbarlik qilish, vazifalarni belgilash va ularning bajarilishini nazorat qilish;
- Xodimlar samaradorligini baholash, KPI tizimini joriy etish va kadrlar salohiyatini rivojlantirish;
- Moliya vazirligi, g'aznachilik organlari va nazorat organlari bilan hamkorlik qilish;
- Tekshiruvlar, taftishlar va auditlar jarayonida tashkilot manfaatlarini ifodalash.

Qonunchilikka rioya etish

- Byudjet, moliya va soliq qonunchiligi talablariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash;
- Ichki reglamentlar va tartib-taomillarning bajarilishini nazorat qilish;
- Ichki normativ hujjatlarni ishlab chiqish va yangilashda ishtirok etish.

Talablar:

- Iqtisodiyot yoki moliya yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumot; magistratura darajasi yoki moliyaviy boshqaruv sohasida qo'shimcha professional tayyorgarlik ustunlik hisoblanadi;

- Moliya-iqtisodiyot sohasida kamida 7 yillik ish tajribasi, shundan kamida 5 yili davlat tashkilotlarida bo‘lishi kerak;
- Byudjetni rejalashtirish va ijro etish bo‘yicha tasdiqlangan amaliy tajriba;
- UZASBO tizimi va boshqa byudjet hisobi vositalarini mukammal bilish;
- O‘zbekiston Respublikasining Milliy buxgalteriya hisobi standartlari va byudjet qonunchiligini chuqur bilish;
- Buxgalteriya hisobi sohasida kamida 3 yillik amaliy ish tajribasi;
- Kamida 5 yillik rahbarlik tajribasi (bo‘linma boshqaruvi va natija uchun javobgarlik);
- Boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularning moliyaviy oqibatlari uchun shaxsan javob bera olish qobiliyati;
- O‘zbek va rus tillarida professional ishbilarmonlik darajasida erkin muloqot qila olish; ingliz tilini bilish qo‘shimcha ustunlik hisoblanadi;
- Intizom, kasbiy etika, maxfiylikka rioya qilish, tahliliy va boshqaruv ko‘nikmalariga yuqori talablar.

Ish Afzalliklari:

- Munosib ish haqi (individual tartibda kelishiladi);
- Kasbiy rivojlanish va lavozim o‘sishi imkoniyatlari;
- Yuqori mas‘uliyatga ega bo‘lgan davlat boshqaruvi tizimida faoliyat yuritish;
- Tashkilot hisobidan malaka oshirish va o‘quv dasturlarida qatnashish;
- Qonunchilikka muvofiq ijtimoiy kafolatlar va imtiyozlar.

Yuridik bo‘lim boshlig‘i

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi Markaziy apparati jamoaga taklif etadi!

Mamlakatimizning muhim davlat tashkilotlaridan biri rivojlanishida faol ishtirok etishga, Markaziy apparat yuridik faoliyatini samarali tashkillashtirish, huquqiy ekspertiza va tashkilot manfaatlarini himoya qilish bo'yicha tajribali hamda malakali mutaxassisni **Yuridik bo'lim boshlig'i** lavozimiga taklif etadi.

Lavozim majburiyatlari:

1. Bo‘lim faoliyati bilan bog‘liq barcha ishlarning amalga oshirilishida rahbarlik qilish, o‘ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish;
2. Bo‘lim faoliyatiga doir masalalarning tezkor yig‘ilishlarda muhokama qilinishida hamda tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilishida ishtirok etish;
3. Bo‘limga yuklatilgan topshiriq va vazifalarni bajarish yuzasidan qo‘mita markaziy apparatining tarkibiy tuzilmalari, hududiy boshqarmalari, qo‘mita tizimidagi tashkilotlardan xizmat maqsadlarida foydalanish va ishni tashkillashtirish uchun belgilangan tartibda zarur ma'lumotlarni so‘rab olish;
4. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari yuzasidan huquqiy ekspertizani, xususan, ularning korrupsiyaga qarshi ekspertizasini amalga oshirish, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, o‘zgartirish va bekor qilishda ishtirok etish;
5. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, tayyorlash, ko‘rib chiqish va huquqiy ekspertizadan o‘tkazishda xorijiy tajribani o‘rganish;
6. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish, ro‘yxatdan o‘tkazish va yuritish;
7. Faoliyatiga tegishli bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash, vazirlik va idoralar tomonidan taqdim etilgan loyihalar yuzasidan takliflar ishlab chiqish;
8. Lavozim yo‘riqnomasi va qonunchilikda belgilangan boshqa vazifalarni bajarish.

Malakaviy talablar:

1. Huquqshunoslik yo‘nalishi bo‘yicha tugallangan oliy ma‘lumotga ega bo‘lishi;
2. Yuridik yo‘nalishi bo‘yicha kamida 3 (uch) yil, shundan 1 (bir) yil respublika darajasidagi davlat organlari va tashkilotlarida ish stajiga ega bo‘lishi;
3. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi:
Konstitutsiya, normativ-huquqiy hujjatlar, fuqarolik, fuqarolik-protsessual, mehnat, moliya, soliq, ma‘muriy, rasmiy statistika, iqtisodiy-protsessual, jinoyat huquqi normalarini va yuridik texnikani, ish yuritishni, sud-da‘vo ishlarini yuritishni bilishi va ish faoliyatida qo‘llash ko‘nikmalari shakllanganligi;
4. O‘zbekiston ichki va tashqi siyosatida sodir bo‘layotgan yangiliklardan xabardor bo‘lib borishi, sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tushunishi;
5. Jamoa bilan ishlash, o‘z bilim va malakasini uzluksiz oshirib borish, o‘zaro tajriba almashgan holda ish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ilg‘or tajribalarini joriy etib borish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, xushmuomala bo‘lishi va boshqaruvchanlik qobiliyatlariga ega bo‘lishi, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, o‘zgartirish va bekor qilish, xususan, ular yuzasidan huquqiy ekspertizani amalga oshirish, fuqarolik, tadbirkorlik va mehnat qonunchiligi bo‘yicha shartnoma va bitimlar tuzish hamda ularni bekor qilish tartibi to‘g‘risida amaliy va nazariy bilimlarga ega bo‘lishi;
6. Kompyuter texnikasi hamda dasturlarida (MS Office) mukammal darajada ishlay olishi;
7. O‘zbek tilini mukammal bilishi (ingliz va rus tillarini bilgan nomzodlarga afzallik beriladi)

Afzalliklar:

1. Mehnat qonunchiligiga muvofiq rasmiy ishga qabul qilish;
2. Davlat boshqaruv tizimida shaxsiy va kasbiy rivojlanish;
3. Yuqori Malakali mutaxassislar bilan ishlash va muhim davlat loyihalarida ishtirok etish imkoniyati;
4. Barqaror va o'z vaqtida to'lanadigan munosib ish haqi;
5. Ish jadvali: 5/2, to'liq ish kuni;
6. Qonunchilikka muvofiq ijtimoiy kafolatlar va imtiyozlar;
7. Qulay ish joyi va ahil jamoa;
8. Tashkilot hisobidan malaka oshirish va o‘quv dasturlarida qatnashish.

HR mutaxassis

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi jamoaga taklif etadi!

Mamlakatimizning muhim davlat tashkilotlaridan biri bo‘lgan Milliy statistika qo‘mitasi Markaziy apparati — tashkilotning eng muhim resursini, ya‘ni **insonlarni** rivojlantirishga hissa qo‘shishga tayyor bo‘lgan, energiyali va malakali mutaxassisni **HR mutaxassis** lavozimiga taklif etadi.

Agar siz xodimlar salohiyatini ochib berish, zamonaviy HR jarayonlarini joriy etish va korporativ madaniyatni shakllantirishga ishtiyoqli bo‘lsangiz — bu o‘rin aynan siz uchun!

Lavozim majburiyatlari:

- zamonaviy HR yondashuvlarini ishlab chiqish va joriy etish: HR siyosati, samaradorlikni boshqarish tizimlari (KPI), xodimlarni motivatsiya qilish va rivojlantirish;
- xodimlar kompetentsiyalarini rivojlantirish, o‘qitish va malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish va yuritish;
- korporativ madaniyatni rivojlantirish, o‘zgarishlarni boshqarish va xodimlar ishtirokini oshirishga oid loyihalarda qatnashish;
- HR qarorlarini tahliliy qo‘llab-quvvatlash, rahbariyat uchun hisobotlar, tahliliy materiallar va takliflar tayyorlash;

- xalqaro forumlar, seminarlar va konferentsiyalarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etish, shuningdek stajirovka va kasbiy almashinuv dasturlarini muvofiqlashtirish;
- institutsional rivojlanish va tashkilot barqarorligini oshirish doirasidagi HR tashabbuslari amalga oshirishda ishtirok etish;
- nomzodlarni tanlash va jalb qilish, shu jumladan asosiy mutaxassislarni maqsadli qidirish;
- nomzodlarni ishga qabul qilishning barcha bosqichlarida va moslashuv jarayonida qo'llab-quvvatlash.

Malakaviy talablar:

- kadrlar boshqaruvi, menejment, iqtisodiyot, tashkiliy rivojlanish yoki tegishli yo'nalishlarda bakalavr/magistr darajasi yoki unga tenglashtirilgan diplom;
- HR, tashkiliy rivojlanish, o'zgarishlarni boshqarish yoki loyiha boshqaruvi sohasida kamida 1 yillik ish tajribasi;
- quyidagilar bo'yicha amaliy tajriba yoki yaxshi tushuncha: 1) KPI va samaradorlikni boshqarish tizimlari; 2) kompetentsiyalarni rivojlantirish va xodimlarni o'qitish; 3) HR siyosati va zamonaviy HR vositalari;
- tahliliy fikrlash, ma'lumotlarni tizimlashtirish va asoslangan takliflar tayyorlash ko'nikmalari;
- yuqori ijrochilik intizomi va natijaga yo'naltirilganlik;
- o'zbek, rus va ingliz tillarida a'lo darajada og'zaki va yozma muloqot ko'nikmalari;
- kompyuter dasturlari bilan ishlash qobiliyati (MS Office — "ishonchli/ilg'or foydalanuvchi" darajasida; Python, Stata, R, Power BI, SQL, C++ bilan ishlash qo'shimcha ustunlik hisoblanadi);
- rivojlangan muloqot ko'nikmalari, jamoada va turli bo'limlar bilan hamkorlikda ishlash qobiliyati.

Afzalliklar:

- Mehnat qonunchiligiga muvofiq rasmiy ishga qabul qilish;
- Davlat boshqaruv tizimida shaxsiy va kasbiy rivojlanish;
- Yuqori Malakali mutaxassislar bilan ishlash va muhim davlat loyihalarida ishtirok etish imkoniyati;
- Barqaror va o'z vaqtida to'lanadigan munosib ish haqi;
- Ish jadvali: 5/2, to'liq ish kuni;
- Qonunchilikka muvofiq ijtimoiy kafolatlar va imtiyozlar;
- Qulay ish joyi va ahil jamoa;
- Tashkilot hisobidan malaka oshirish va o'quv dasturlarida qatnashish.

Iqtisodchi-tahlilchi (yetakchi yoki bosh mutaxassis)

Milliy statistika qo'mitasi markaziy apparat jamoasi mas'uliyatli, tashabbuskor va tahliliy fikrlash qobiliyatiga ega nomzodlarni **Iqtisodchi-tahlilchi** vakant lavozimiga taklif etadi.

Lavozim majburiyatlari:

- Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va tahliliy hisobotlar tayyorlash;
- Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish usullarini takomillashtirish;
- Statistik ma'lumotlarning sifati, ishonchligi va taqqoslanuvchanligini ta'minlash;
- Makroiqtisodiy va statistik tahlil o'tkazish;
- Ma'lumotlar bazalari bilan ishlash;
- Jadvallar, grafiklar va vizualizasiyalar tayyorlash;
- Matematik statistika, ekonometrika va mashinali o'qitish usullarini qo'llash;
- Tahliliy materiallarni tayyorlash va taqdimot qilish.

Malakaviy talablar:

- Iqtisodiyot, statistika, moliya, matematika yoki turdosh sohalar bo'yicha oliy ma'lumot;
- Excel va statistik dasturlarda (Python, Power BI, SQL, Stata, EViews, R yoki o'xshash) ishlash ko'nikmalari;
- Katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash tajribasi;
- O'zbek, rus va ingliz tillarini bilish;
- Analitik va tanqidiy fikrlash, muloqot ko'nikmalari, diqqatlilik va jamoada ishlash qobiliyati.

Afzalliklar:

- Mehnat qonunchiligiga muvofiq rasmiy ishga qabul qilish;
- Davlat boshqaruv tizimida shaxsiy va kasbiy rivojlanish;
- Yuqori malakali mutaxassislar bilan ishlash va muhim davlat loyihalarida ishtirok etish imkoniyati;
- Barqaror va o'z vaqtida to'lanadigan munosib ish haqi;
- Qulay ish jadvali: 5/2, to'liq ish kuni;
- Qonunchilikka muvofiq ijtimoiy kafolatlar va imtiyozlar;
- Qulay ish joyi va ahil jamoa;
- Tashkilot hisobidan malaka oshirish va o'quv dasturlarida qatnashish.

Ma'lumotlarni boshqarish va sun'iy intellekt yo'nalishi bo'yicha rahbar

Biz O'zbekiston rasmiy statistikasida ma'lumotlarni boshqarish tizimini rivojlantirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishga rahbarlik qila oladigan yuqori malakali rahbarni izlayapmiz.

Asosiy vazifalar:

- Data Governance va AI strategiyasini shakllantirish va amalga oshirish;
- ma'lumotlarni boshqarish, integratsiya qilish, ularning sifati va xavfsizligini ta'minlash hamda ulardan foydalanishga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish;
- sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganishga asoslangan yechimlarni rivojlantirish;
- Data Warehouse, Big Data, metama'lumotlar va ma'muriy ma'lumotlar manbalariga oid loyihalarni muvofiqlashtirish;
- jamoaga rahbarlik qilish hamda davlat organlari, xalqaro tashkilotlar va texnologik hamkorlar bilan hamkorlik olib borish;
- xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribani joriy etish.

Asosiy talablar:

- Data Governance, Data Management va Artificial Intelligence sohalarida chuqur professional bilim va tasdiqlangan amaliy tajriba;
- axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, Data Science, statistika, iqtisodiyot, amaliy matematika yoki boshqa turdosh yo'nalishlarda oliy ma'lumot (yetakchi xorijiy ta'lim muassasasida olingan ta'lim ustunlik beradi);
- o'zbek, rus va ingliz tillarini ishonchli darajada bilish;
- rahbarlik tajribasi, strategik fikrlash va kuchli tahliliy ko'nikmalar;
- ma'lumotlarni boshqarish siyosati, arxitekturasi va tizimlarini ishlab chiqish hamda joriy etish tajribasi;
- kompleks idoralararo va texnologik loyihalarga rahbarlik qilish qobiliyati.

Xalqaro ish tajribasi, xalqaro tashkilotlar loyihalaridagi ishtirok, shuningdek milliy statistika organlari yoki davlat axborot tizimlari bilan hamkorlik tajribasi muhim ustunlik hisoblanadi.

Ish Afzalliklari:

- Munosib ish haqi (individual tartibda kelishiladi);
- Kasbiy rivojlanish va lavozim o'sishi imkoniyatlari;
- Yuqori mas'uliyatga ega bo'lgan davlat boshqaruvi tizimida faoliyat yuritish;
- Tashkilot hisobidan malaka oshirish va o'quv dasturlarida qatnashish;
- Qonunchilikka muvofiq ijtimoiy kafolatlar va imtiyozlar.